

МУГАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҶ



ISSN 2181-7138

№ 1 / I 2021 жыл

Илимий-методикалық журнал

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия аъзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Өсербай ӨЛЕҶОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ
Гўлнара ЖУМАШЕВА
Батырбек КАИПБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Сарсен КАЗАХБАЕВ
Гулмира КАРЛЫБАЕВА
Сабит НУРЖАНОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Зухра СЕИТОВА
Айдын СУЛТАНОВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Ризамат ШОДИЕВ
Ойбахор ШАМИЕВА
Бекзод ХОДЖАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Гулрухсор ЭРТАШЕВА

Шўлкемлестириўшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы
Халық билимлендириў
Министрлиги, ӨЗПИИИ
Қарақалпақстан филиалы**

**Ўзбекстан Республикасы
Министрлер Кабинети
жанындағы Жоқарғы
Аттестация Комиссиясы
Президиумының 25.10.2007
жыл (№138) қарары менен
дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сўз ҳәм
хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге
алынды №01-044-санлы гуўалық
берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,
Ерназар Алакөз көшеси №54
Тел.: 224-23-00**

**e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz**

Журналға келген мақалаларға жуўан қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған ўзиндилер «Мугаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шарт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлўматларға автор жуўапкер.

МАЗМУНЫ

БАСЛАЎҲИ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Mardonov Sh.Q., Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab hamkorligi	4
Mahmudova D.B. Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi	8
Shanasirova Z.Yu. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantirish	13
Abdullayeva M.Dj. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar	17
Narimbayeva L.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning ahamiyati	20
Nosirova R.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa ta'limi va tarbiyasining mohiyati ..	22
Xolmatova S.K. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish ahamiyati	26
Maripova N.H. Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya	28
Sanakulova A.R. Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarida huquqiy tarbiyani rivojlantirish	31
Teshabayeva Z.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi	34
Nasirova Z.X. O'yin turlari: ijodiy o'yinlar, qoidali o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari	38
Shanasirova Z.Yu. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati	43
Jo'raboyev A.B. Maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarini singdirish amaliyoti	48
Abdullayev A.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rahbarlik qilish va tashkil etishning zamonaviy usullari	51
Achilova M.S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida estetik tarbiyaning mazmuni	55
Ochilov F.I., Xusanova N.B. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy pedagogik kompetentsiyalarni shakllantirish talablari	58
Narimbetova Z.A., Asqarova N.J. Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlarning ahamiyati	62
G'ulomova X. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida maqollar estetikasi	67
Умарова З.А. Бошланғич таълимда педагогик жараён	70
Жабборова О.М., Сайидганиева З.С. Бошланғич таълим педагогикаси: мазмун ва моҳият	74
Quzmanova G.B., Ergasheva M.E. Umumiy o'rta ta'lim maktablari ota-onalar yig'ilishini samarali tashkil etish	78
Мамадалиев К.Р. Бошланғич таълим йўналиши ўқув фанлари тузилмаси ва замонавий ўқув адабиётларини яратиш принциплари	80
Тожибоева Г.Р., Крымская Э. Проблемы развития творческих способностей в процессе становления будущего учителя начальных классов	86

ТИЛ ХАМ ӘДЭБИЯТ

Матчинов С., Холикулова Ф. Ўқувчиларнинг нутқий кўникмаларини шакллантиришда матнинг лингводидактик таҳлили	91
Шерматова У.С., Жабборова О.М. Самостоятельное чтение и интерпретация правды жизни	95

SUMMARY

Compulsory schooling places certain demands on a child. It is known that a child must reach a level of development that can meet the requirements of the educational institution, and only then can the child be sent to school. In this process, it is important to prepare the child for school education, which is why the article explores the importance of preparing preschool children for school education.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVİY QADRIYATLARNI SINGDIRISH AMALIYOTI

Jo'raboyev A.B.

TVChDPI Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, qadriyatlar, sog'lom avlod tarbiyasi, globallashuv jarayoni, fan va ma'daniyat rivojlanishi.

Ключевые слова: система дошкольного образования, ценности, воспитание здорового поколения, глобализация, развитие науки и культуры.

Key words: preschool education system, values, upbringing of a healthy generation, globalization, development of science and culture.

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayoti va turmush darajasi fan va ma'daniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va ma'daniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolaning ongiga singdirilgan bilim va ma'naviy qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli o'zaro va oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish, bola tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish, uyg'un rivojlangan bola shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek "Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. Folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir".

Bizning fikrimizcha, maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanparvar, insonparvar, mehnatsevar, ma'nan yetuk, axloqan yuksak insonlar bo'lib voyaga yetishi ko'p jihatdan oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotida ularga berilgan mana shu bolalik qo'shig'i bo'lgan folklor asarlaridan ta'lim-tarbiya tizimida samarali foydalanishga bog'liqdir.

Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida qabul qilingan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ham o'z aksini topgan.

Konsepsiyaning beshinchi bobida aynan maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish, bu davrdan boshlab bolalarda ijobiy xulq motivlarini, «O'zbekiston - mening Vatanim!» tuyg'usini shakllantirish, ularda davlat ramzlariga hurmat hissini tarbiyalash, o'g'il bolalarda mardlik, shijoat, milliy g'urur, qat'iyat, tadbirkorlik, oriyat, qiz bolalarda ibo, hayo, qanoat, mehnatsevarlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda «Bola aziz, odobi undan aziz» mavzuida ertak, matal, afsona, doston, maqollardan foydalanib MTT tarbiyachi-pedagoglari va ota-onalar uchun alohida uslubiy

ishlanmalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilab berildi.

MTMda yosh davri bolalariga beriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiya bevosita M.Koshg'ariy, U.Kaykovus, A.N.Forobiy, al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, A.Navoiy kabi sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida keltirilgan alla, ertak, maqol, topishmoqlarga va xalq tilidan yozib olingan xalq og'zaki ijodi namunalariga ustuvorlik berish asosida singdirilishi yoritib berilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasasining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida belgilanganidek, o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalarini kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iborat. Mazkur hujjatda maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim 4ta kompetensiyasi aks ettirilgan: kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish; o'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanish, u o'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi; ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish; bilish kompetensiyasi – atrof olamni ongli idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni bajarish uchun foydalanish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlarini xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida egallab borishi to'g'risida qat'iy xulosaga kelingan. Maktabgacha davridan boshlab bolalarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish ko'p bosqichli va murakkab jarayon bo'lib, bu jarayon texnologik yondoshuvni talab qiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini interaktiv texnologiyalari asosida takomillashtirish mumkin.

Interaktiv texnologiyalarning eng e'tiborli tomoni shundaki, u orqali bolalarda dastlabki odob-axloq ko'nikmalarini, kommunikativlik, kreativ fikrlash, liderlik sifatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishga innovatsion yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi – ko'p omillar ta'siriga uchrashi, natijalarning tez namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdir. Ko'p bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqidagi tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish va to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o'tish bilan tavsiflanadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyasining quyidagi to'rt bosqichi ko'rsatib o'tilgan.

1. Motivatsion bosqich – tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar bilan yo'g'rilgan xalq og'zaki ijodi namunalari tinglashga qiziqish, ehtiyoj va istakni qaror toptirishga qaratilgan jarayon.

2. Mazmun bosqichi – xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlariga doir tasavvur, tushuncha va bilimlar majmuini ishlab chiqish.

3. Faoliyatli bosqich – maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlariga doir aniq vaziyatlar, faoliyat shakllarini yaratish orqali ularni amaliy faoliyatga jalb etish.

4. Qadriyatli bosqich – maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan egallangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini qadriyatga aylantirish, ularda mustahkam e'tiqodni shakllantirish maqsadida tashkil etiluvchi jarayon hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi tahlillardan shun xulosa qilish mumkinki ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning bosh maqsadi yoshlarni barkamol avlod sifatida tarbiyalashga qaratilganligidir. Yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, mustaqil, teran fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, ruhan tetik va sog'lom, axloqan yetuk fazilatlariga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash esa asrlar davomida doim maktabgacha ta'lim tizimida o'qituvchi-pedagoglarning zimmasidagi asosiy mas'uliyatli vazifalardan hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim va murakkab bo'g'ini hisoblanadi. Bolalar bu bosqichda elementar o'qish va yozish, hisoblash va tabiat bilan tanishish, o'zligini anglash, jamiyatdagi voqelikka idroki darajasida munosabat bildirish olish, mustaqil fikrlash kabi ko'nikma va malakalarni egallashga muvaffaq bo'ladilar. Bu jarayonda sog'lom avlod tarbiyasida ma'naviy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir.

Adabiyotlar:

1. Ushinskiy K.D. Prepodavaniye arifmetiki i pervonachalnoy geometrii / Soch. M.: Prosvesheniye, 1948 g.
2. Tixeyeva Ya.I. Metodika razvitiya rechi detey. M.: «Prosvesheniye», 1967 g.
3. Sorokina A.I. Didakticheskiye igri v detskom sadu. M.: «Prosvesheniye», 1982 g.
4. Vospitaniye detey v starshey gruppe detskogo sada. Sost. G.M. Lyalina. M.: «Prosvesheniye», 1984 g.
5. Formirovaniye elementarnix matematicheskix predstavleniy u doshkolnikov. Pod redaksiyey A.A. Stolyara. M.: «Prosvesheniye», 1988 g.
6. Leushina A.M. FEMP u doshkolnogo vozrasta. M.: «Prosvesheniye», 1974 g.

РЕЗЮМЕ

Bugungi globallashuv jarayoni intellektual salohiyat, kuchli bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi. Ma'lumki, har qanday ta'lim muayyan ijtimoiy buyurtma asosiga quriladi hamda ana shu buyurtmadan kelib chiqqan holda uning mazmuni, maqsad va vazifalari belgilanadi. Shu ma'noda maktabgacha ta'lim tizimida ham sog'lom avlod tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada ushbu tizimdagi amalga oshirilayotgan islohatlar yoritilgan hamda maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarni singdirish amaliyoti tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ

Современный процесс глобализации требует подготовки специалистов с интеллектуальным потенциалом и глубокими знаниями. Известно, что любое образование основывается на определенном социальном заказе, и исходя из этого порядка определяется его содержание, цели и задачи. В этом смысле воспитание здорового поколения играет важную роль в системе дошкольного образования. В статье описываются проводимые в этой системе реформы и анализируется практика привития духовных ценностей в системе дошкольного образования.

SUMMARY

Today's globalization process requires the training of specialists with intellectual potential and strong knowledge. It is known that any education is based on a certain social order, and based on this order, its content, goals and objectives are determined. In this sense, the education of a healthy generation plays an important role in the system of preschool education. The article describes the ongoing reforms in this system and analyzes the practice of inculcating spiritual values in the preschool education system.